

**O'ZBEKISTONDA TIJORAT BANKLARI KREDIT PORTFELINI
OPTIMALLASHTIRISHNING AMALIY HOLATI HAMDA TAHLILLARI**

Kurbonov Shuhrat Komilovich

O'zbekiston Respublikasi Bank-moliya akademiyasi magistranti

Annotatsiya: Mazkur maqolada tijorat banklarida kredit portfelini optimallashtirish yo'llari tadqiq qilingan. Tijorat banklarida kredit portfelini optimallashtirish yo'llarining quyidagi jihatlari yoritib berilgan ular: tijorat banklarida kredit portfelini optimallashtirishning ilmiy-nazariy qarashlari, tijorat banklarida kredit portfelini optimallashtirishning o'ziga xos xususiyatlari, O'zbekiston tijorat banklarida kredit portfelini optimallashtirishning metodologik asoslari, tijorat banklarida kredit portfelini optimallashtirishning rivojlangan xorijiy davlatlar amaliyotlari, O'zbekistonda tijorat banklari kredit portfelini optimallashtirishning me'yoriy-huquqiy asoslari, O'zbekistonda tijorat banklari kredit portfelini optimallashtirishning amaliy holati va tahlillari, O'zbekistonda tijorat banklari kredit portfelini optimallashtirishdagi muammolari aniqlanib, O'zbekiston tijorat banklarida kredit portfelini optimallashtirish yo'llari yuzasidan ilmiy amaliy takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: tijorat bank, kredit portfeli, likvidlilik, to'lov qobiliyati, daromadlilik ko'rsatkichlari, iqtisodiy samaradorlik, inflyatsiya ko'rsatkichi, optimallashtirish.

Abstract: In this article, ways of optimizing the loan portfolio in commercial banks are studied. The following aspects of ways to optimize the loan portfolio in commercial banks are highlighted: scientific and theoretical views of loan portfolio optimization in commercial banks, specific features of loan portfolio optimization in commercial banks, methodological bases of loan portfolio optimization in commercial banks of Uzbekistan, advanced methods of loan portfolio optimization in commercial banks practices of foreign countries, optimizing the loan portfolio of commercial banks in Uzbekistan regulatory and legal bases, the practical situation and analyzes of the optimization of the loan portfolio of commercial banks in Uzbekistan, the problems of optimizing the loan portfolio of commercial banks in Uzbekistan were identified, and scientific and practical proposals were developed regarding the ways of optimizing the loan portfolio of commercial banks of Uzbekistan.

Key words: commercial bank, loan portfolio, liquidity, solvency, profitability indicators, economic efficiency, inflation indicator, optimization.

“O'zbekistonda ham so'ngi yillarda tijorat banklari tomonidan kredit siyosati amaliyotini takomillashtirish masalalari dolzarb hisoblanmoqda. Xususan, Sh.Mirziyoev «...Respublikamiz bank-moliya tizimini isloh qilish mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirishda bank tizimining rolini oshirish imkonini berdi. Shu bilan birga ko'rsatilayotgan bank xizmatlari sifatini yanada oshirish hamda hamkorlik munosabatlarini o'rnatish uchun tijorat banklarining ish uslublarini tubdan yaxshilash”

(O'RQ, 2020), "O'zbekiston Respublikasida ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining faol tarkibiy qismi hisoblangan mijozlar faoliyatining barqaror rivojlanishi tijorat banklari tizimlari bilan chambarchas bog'liq hisoblanadi. Asosan bugungi kunda tijorat banklari tomonidan ajratilgan umumiy kreditlarning 55-60 foizi davlat dasturlari asosida berilayotganligi, hamda ushbu yo'nalishda ilmiy taklif hamda tavsiyalar ishlab chiqishni taqozo etadi.

O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyotining rivojlanishi asosan mamlakatdagi amalga oshirilayotgan keng ko'lamli iqtisodiy hamda ijtimoiy islohotlar jumladan, mijozlarga yaratilayotgan keng imkoniyatlar bilan uzviy bog'liqdir.

Xalqaro tajribani kuzatadigan bo'lsak, mamlakatdagi tijorat banklari kredit qo'yimlari miqdori YaIMga nisbatan Avstraliyada 190 foizdan, Niderlandiyada 279 foizdan, Buyuk Britaniyada 170 foizdan hamda AQShda 150 foizdan ortiq qismini tashkil etgan. Bundan quyidagi xulosalarni qilish mumkin, mamlakatimizda ajratilayotgan kreditlar haqiqatan keng quloqch yoyib, pulga talab oshmoqda ammo xalqaro tajribalar tahliliga ko'ra bugungi kunda kredit bilan ta'minlanish darajasi etarli darajada emasligidan dalolat beradi.

Bank tizimi aktivlari 2023 yilda 444,9 trln. so'mni tashkil etgan hamda o'tgan yillarga nisbatan o'sgan, 2018 yilga nisbatan 529,0 foizga oshgan. Riskka tortilgan aktivlar ham kreditlarning o'sishi mos ravishda ko'paygan. Bank kapitali ham ko'paygan bo'lsada, uning etarlilik darajasi pasayganligini ko'rsa bo'ladi. Aktivlar sifati ifoda etuvchi muamoli kreditlar ham, summasi ham ko'paygan. Aktivlar sifatining yomonlashuvi uning muamoli aktivga o'tayotganligidan dalolat beradi.

O'zbekiston Respublikasi banklarining aktivlari hamda muamoli kreditlari to'g'risida ma'lumot, trln. so'mda

№	Ko'rsatkichlar	2018	2019	2020	2021	2022	2023	O'zgarishi (2023/2018)	
								trln. so'm	% da
1	Aktivlar	84,1	166,6	214,4	272,7	6,1	444,9	360,8	529,0
2	Riskka tortilgan aktivlar	57,4	106,5	155,0	223,0	316,8	384,9	327,5	670,5
3	Berilgan kreditlar	52,6	110,6	167,4	211,6	277,0	326,4	273,8	620,5
4	Kapital	9,0	20,7	26,7	51,0	58,4	70,9	61,9	787,8
5	Muamoli kreditlar	0,39	1,32	2,14	3,17	5,78	16,9	16,51	4333,3

Muddati kelgan kreditning qaytarilishida kredit oluvchi summani qaytarishga qodir emasligi kelib chiqadi hamda bank ma'lum bir zararlar ko'radi. Muamoli kreditlarni kamaytirishning so'nggi choralaridan biri, olingan kafolatlar hamda kafilliklar bo'yicha

to'lovlarni undirish, garovga olingan mol mulkni sotish hisobiga ularni qoplash hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Valyuta siyosatini liberallashtirish bo'yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlar to'g'risida"gi Farmoni, 02.09.2017 yildagi PF-5177-son
2. Krugman, P. R., & Obstfeld, M. (2009). International Economics: Theory and Policy (8th ed.). Pearson.
3. Mishkin, F. S. (2018). The Economics of Money, Banking, and Financial Markets (12th ed.). Pearson.
4. Tapscott, D., & Tapscott, A. (2016). Blockchain Revolution: How the Technology Behind Bitcoin Is Changing Money, Business, and the World. Penguin.
5. Obstfeld, M., & Rogoff, K. (1996). Foundations of International Macroeconomics. MIT Press.

